

UMUMTA'LIM MAKTABI ONA TILI DARSLARIDA DARS O'TISHNING YANGICHA USLUBLARI VA DARS MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING DOLZARBLIGI

Boboyorova Nilufar Batirovna

Annotatsiya: Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tiliga, ya’ni o’zbek tiliga e’tibor kundan kunga ortib bormoqda. Shu bois, umumta’lim maktablarida dars beruvchi ona tili o’qituvchilaridan ona tili fanini o’qitishda yangicha usullar, ilg’or pedagogik hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kerakligi zamon talabiga aylanmoqda. Aynan shu maqsadni nazarda tutgan holda ushbu maqolani umumta’lim maktabi ona tili darslarida dars o’tishning yangicha talqinlariga bag’ishladik. Shuningdek, ona tilidagi fe’l so‘z turkumiga doir mavzularni o’qitishda ilg’or ta’lim metodlaridan foydalanishning samarali yo’llari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim texnologiyalari, pedagogik maqsadlar taksonomiyasi, kognitiv(bilishga oid) soha, Benjamin Blum taksonomiyasi, faol o‘qitish metodlari, zamonaviy ta’lim, bilish, tushunish, qo’llash, analiz, sintez, baholash, talaffuz, nutqiy ko’nikma, zamonaviy texnik vositalar, tekshirish metodlari, til ma’nolari.

Jamiyat rivoji fan va texnika, ta’lim-tarbiya taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Insoniyat sivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta’lim berishga yo‘naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ta’lim jarayonini o‘ta qat’iy hamda murakkab talablar asosida yo‘lga qo‘yish zarurati kun tartibiga qo‘yilmoqda. Zero, bugungi kunda zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun har bir yosh bir necha tilni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi, o‘zbek (davlat) tilidan tashqari kamida ikki emas, to‘rtta jahon tillarini yaxshi bilishi talab etilmoqda. Bunga erishish uchun ta’lim mazmunini yangilash, amaldagi dastur va darsliklarni takomillashtirish va eng muhim - barcha tarkibiy qismlari mohiyat va metodologik jihatdan mushtarak bo‘lgan yangi o‘quv majmualari yaratishga yo‘naltirilgan tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi va amalgalashirilishi darkor. So‘nggi yillarda jahon ta’lim tizimida tilni zamon talablari asosida mustaqil o‘zlashtirish usullarini tatbiq etishga katta e’tibor berilmoqda. Jumladan bizning respublikamizda ham har bir til va adabiyot fanini o‘qituvchi mutaxassis ustoz o‘z darslarini yangi pedagogic texnologiyalar asosida o‘qitishga qaratmoqda.

Maktablarda ona tili darslarini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar quyidagi jihatlarga e'tiborli bo'lishlari darkor:

1. Darsni 8-12, 15-20 kishidan iborat guruhlarda tashkil etish.

2. O'qitishda zamonaviy texnik vositalar (video-magnitofon, kompyuter va boshqa audiovizual jihozlar) dan foydalanish.
3. Til o'rgatishda, shuningdek, fan bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, mavzular bo'yicha uslubiy ko'rsatma va ishlanmalardan mustaqil ravishda foydalanish.
4. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda tilni nazariy jihatdan o'rganishga, yangi nutqiy ko'nikmalar hosil qilishga e'tibor qaratish.

Bundan tashqari, ona tilini o'rgatishda to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantirish va so'z boyligini muntazam ravishda oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda texnik vositalar - video va audiomagnitafonlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ta'lif jarayonida faol o'qitish metodlarini tanlash.

Ta'lif texnologiyaelementlarini tanlash va amalga oshirishda ta'lif oluvchilarning o'quv bilish faoliyatlarini e'tiborga olish lozim. Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqida guvohlik beradiki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida ta'lif oluvchilarga yangi bilimlarni berish amalga oshiriladi, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi noan'anaviy metodlarni amalga oshirish orqali berilgan bilim mustahkamlanishi lozim.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo'lsa, ma'lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o'tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Yo'naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o'qitish kabi usullarmustaqlil o'rganilgan, tahlil va muhokama qilingan ma'lumotlarning 90 foizini xotirada saqlanashi uchun imkon beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida an'anaviy metodlar qo'llanilganda, ta'lif oluvchilarning axborotni eslab qolish ko'rsatkichining eng yuqori darajasi 30 foizni tashkil etar ekan. Noan'anaviy metodlar qo'llanilganda esa, ularning axborotlarni o'zlashtirish darajasi yanada ortib boradi.

Har qanday ta'lifning maqsadi - bilimni hamda uni amalda qo'llay bilish ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish, shunga zarur shaxs sifatlari va ko'rsatmalarni ishlab chiqishdir. Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, darsliklar, dars berish amaliyotidagi o'quv maqsadlarining aksariyati kognitiv (bilishga oid) sohaga tegishli bo'lishi aniqlangan. Xuddi shu maqsadda jahon pedagogikasida fundamental izlanishlar natijasida o'quv maqsadlari taksonomiyasi vujudga kelgan. U o'quv maqsadlarini belgilashning eng ilg'or usuli bo'lib e'tirof etilgan. Ona tili darslarida o'quv jarayonini pedagogik maqsadalar taksonomiyasidan foydalanib tashkil etishda quyidagi tavsiyalarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

O‘quv maqsadlarining asosiy toifalari	O‘quv maqsadlari turlaridan namunalar.
<p>1. Bilish</p> <p>Bu toifa o‘tilgan materialni eslab qolish va takroran so‘zlab (ko‘rsatib) berishni anglatadi.</p> <p>Mazmun turlicha aniq dalillardan boshlab, to yaxlit nazariyalargacha bo‘lishi mumkin. Bu tofaning umumiy belgisi tegishli ma’lumotlarni eslab qolishdir.</p>	<p>Ta’lim oluvchi</p> <p>Qo‘llaniladigan iboralarni biladi, aniq dalillarni biladi, ish-harakat tartibi uslublarini biladi, asosiy tushunchalarni biladi, qoida va tamoyillarni biladi.</p>
<p>2. Tushunish</p> <p>Quyidagilar o‘tilgan material ahamiyatini tushunish qobiliyatining ko‘rsatkichlari bo‘lish mumkin: materialni bir shakldan ikkinchi shaklga o‘zgartirish, bir «til» dan ikkinchi «til»ga aylantirish (masalan og‘zaki shakldan yozma shaklga). Shuningdek, o‘quvchi tomonidan materialni tushuntirib berilishi va qisqacha bayon qilinishi (interpretatsiya) yoki hodisa va voqealarning bundan keyingi borishini tasavur etishi (oqibati va natijasini oldindan aytib berishi) ham tushunish ko‘rsatkichlari bo‘ladi.</p>	<p>Ta’lim oluvchi</p> <p>Dalillar, qoida va tamoyillarni tushunadi, og‘zaki materialni talqin qila oladi, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qila oladi, og‘zaki materialni yozma shaklda ifodalay oladi, mavjud ma’lumotlar asosida kutilayotgan oqibat-natijani taxminan tasavvur eta oladi.</p>
<p>3. Qo‘llash</p> <p>Bu toifa o‘qitilgan materialdan aniq sharoitlarda va yangi vaziyatlarda foydalana bilishni anglatadi. Bunga qoidalar, uslublar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar va</p>	<p>Ta’lim oluvchi</p> <p>Tushuncha va tamoyillarni yangi vaziyatlarda qo‘llaydi, qonun, o‘rganilgan ma’dumot, nazariyalarni aniq amaliy vaziyatlarda qo‘llaydi,</p>

<p>nazariyalarni amalda qo'llay olish kiradi.</p> <p>O'qitishning bunday natijasi materialni tushunishga nisbatan ancha yuqori darajada egallashni talab qiladi.</p>	<p>uslub yoki ish-harakat tartibini qo'llay olishini namoyish qiladi.</p>
<p>4. Tahlil</p> <p>Bu toifa materialni alohida qismlarga ajratishni bilishni anglatadi. Bunda uning tarkibiy tuzilishi aniq ko'rinish turishi kerak. Bunga yaxlitlikni qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash, yaxlitlikning tashkil etilish tamoyillarini anglash kiradi. Bu toifa o'quv natijalarini tushunish va qo'llashga nisbatan anchagina yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlanadi.</p>	<p>Ta'lif oluvchi Yashirin (noaniq) taxminlarni ifodalaydi, fikrlash mantig'idagi xato va kamchiliklarni ko'ra oladi, dalillar va sabablar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlaydi, bog'lanishlarni tahlil qila oladi.</p>
<p>5. Sintez</p> <p>Bu toifa o'zida yangilikni aks ettirgan yaxlitlikni vujudga keltirish uchun alohida qismlar kombinatsiyasini tuzishni anglatadi.</p> <p>Bunday yangi mahsulot - leksiya, nutq faoliyat rejasi yoki umumlashtirilgan aloqalar majmui (mavjud ma'lumotlarni tartibga tushirish sxemasi) bo'lishi mumkin. Unga mos o'quv natijalari yangi sxema va tarkibiy tuzilishlar yaratishni o'z ichiga olgan hamda ijodiy xarakterga ega bo'lgan faoliyatni nazarda tutadi.</p>	<p>Ta'lif oluvchi Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan shakllarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda, insho yozadi, tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, u yoki bu muammoni hal etish rejasini tuzishda boshqa (fan)larga oid bilimlardan foydalanadi.</p>

<p>6. Baholash Bu toifa u yoki bu material (qonun, badiiy asar,o‘rganilgan ma’lumot, izlanish natijalari)ning ahamiyatiga aniq maqsad nuqtai nazaridan baho berishni anglatadi. O‘quvchi mulohazalari mezoni ichki (tarkibiy, mantiqiy) yoki tashqi (belgilangan maqsadga muvofiq) bo‘lishi mumkin. Bu mezonlar o‘quvchi yoki o‘qituvchi tomonidan belgilanishi mumkin. Bu toifa oldingi (5ta) o‘quv maqsadlarining barchasini egallanishini va ularga qo‘srimcha ravishda aniq belgilangan mezonlarga asoslanib baho bera olishni ham bilishni nazarda tutadi</p>	<p>Ta’lim oluvchi Materialning mantiqiy tuzilishini yozma matn shaklida baholaydi, xulosalarni berilgan shakllarga mosligini baholaydi, ichki mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi, tashqi mezonlardan kelib chiqqan holda u yoki bu faoliyat ahamiyatiga baho beradi (munosabatini bildiradi).</p>
--	---

Endi esa ona tili darslarida fe’l so‘z turkumiga oid mavzularni o‘qitishda o‘quv maqsadlarini B.Brum takonomiyasidan foydalanib aniqlash yuzasidan namuna berib o‘tamiz. Buning uchun ko‘p javobli va nostandard testlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1. “Bilish” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish va baholashda foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i:

Berilgan gaplardagi o‘tgan zamon fe’llarining ma’no turlarini aniqlang va jadvalga joylashtiring.

- 1) *Abdukarim aka bilan birgalikda to‘yxonadan kelmoqda edik.*
- 2) *Kelini Mehriniso Toshkentlik, o‘g‘li ikkisi o‘qish davrida topishgan (O.Yo.)*
- 3) *Kecha oqshom oydinda gulzor tomon borar eding.*
- 4) *Bu qissani men yozib edim.*
- 5) *Endi men o‘zimning qilmishimdan pushaymon bo‘ldim.(A.Q.)*

<i>Aniq o‘tgan zamon fe’li</i>	<i>Uzoq o‘tgan zamon fe’li</i>	<i>O‘tgan zamon hikoya fe’li</i>	<i>O‘tgan zamon davom fe’li</i>	<i>O‘tgan zamon maqsad fe’li</i>

O‘quvchi berilgan ushbu nostandard test topshirig‘i bilan ishslash jarayonida mavzu yuzasidan dalillar va atamalarni, dalillarni tanlash usulini, turkumlashni, umumiyl tushuncha va nazariyalarni bilishi namoyon bo‘ladi. Tahlil” ga oid o‘quv maqsadiga erishilganlik darajasini nazorat qilish vabaholashda foydalaniladigan nostandard test topshirig‘i:

Quyida berilagan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri?

- A. Hozirgi kelasi zamon fe’li nutq so‘zlanib turgan paytda boshlanib, undan keyin davom etadigan harakatni bildiradi. Bu fe’l shakli fe’l negiziga -y (-a) qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash orqali hosil bo‘ladi.
- B. Ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytga bo‘lgan munosabatlarini ifodalaydigan kategoriylar fe’l nisbatlari deyiladi.
- C. Aniq kelasi zamon fe’li kelasi zamonda aniq bajariladigan ish-harakatni bildirib, unda istak ma’nosi ifodalanadi. Bu fe’l shaklida harakat nutq jarayonidan keyin bajarilishi aniq sezilib turadi. Aniq kelasi zamon fe’li fe’l negiziga -ajak (- yajak), -gay qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash bilan hosil bo‘ladi.
- D. Kelasi zamon gumon fe’li harakatning bajarilishi haqidagi mo‘ljalni, taxminni gumon tarzida ifodalaydi. Bu shakl fe’l negiziga -r(-ar) qo‘srimchasini qo‘sib, tuslash orqali hosil bo‘ladi.
- E. Kelasi zamon maqsad fe’li bajarilishi maqsad qilib qo‘yilgan ish harakatni ifodalaydi. Bu fe’l shakli fe’l negizlariga -moqchi, -digan qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash bilan hosil bo‘ladi.
- F. Hozirgi zamon davom fe’li nutq so‘zlanib turgan paytda bajarilishda davom etib turgan ish-harakatni bildiradi. Bu shakl fe’l negiziga -yap,-moqda qo‘srimchasini qo‘sish va tuslash bilan hosil bo‘ladi.
- G. Harakatining boshqa bir harakatning belgisi ekanligini anglatib, gapda ergash gapning kesimi yoki hol vazifasida keladigan fe’l shakli sifatdosh deyiladi.

Javob: _____

To‘g‘ri javov: A, C, D, E, F

Yuqoridagi topshiriqni bajarish natijasida o‘quvchi mavzuni qismlarga ajratish, bu qismlarning yoyilmasi va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tuzish, qismlarni tahlil qilish, yaxlitlikni tashkil qilish tamoyillari bilan tanishadi. Xulosa shuki, ta’lim-tarbiya jarayonida Blum taksonomiyasiga binoan o‘quv maqsadlarining aniqlanishi, o‘quvchilarning o‘quv maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va baholashda nostandard test topshiriqlaridan foydalanish, nazoratning haqqoniyligi, keng qamrovlilagini ta’minlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Usmonova. Adabiy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent,2005 y.
2. N.Sattarova. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o‘quvchilarni tahlil qilishga o‘rgatish usullari. Buxoro. 2006 y.

3. Bloom B.S. Handbook on Formative and Summative Evaluation of Student Learning. N - Y., McGraw-Hill, 1971. – s-232.
4. Ismoilova I. Pedagogikadan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: 2002.
5. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –Toshkent: “Fan”, 2005.
6. Mengliev B. Ona tili ta’limi: Davr talabi va ijtimoiy zarurat. “Ma’rifat” gazetasi, 2017 yil, 22-fevral soni, 8-9-b. 7. Sayfullaeva R., Mengliev B., Boqieva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: 2007.
8. Mengliev B. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. –Toshkent: 2010.